BADIIY DISKURSDA EMOTSIONALLIKNING NAMOYON BO‘LISHI

Sh.T.Abdusattarova[1]

1. Mustaqil izlanuvchi Samarqand davlat chet tillar instituti

Mas'ul muallif: Abdusattarova Shaxlo Toshtemirovna, Mustaqil izlanuvchi Samarqand davlat chet tillar instituti.

e-mail: shakhlopm@gmail.com

Received: 29 Oktabr 2026
Accepted: 03 Noyabr 2026
Published: 08 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Abdusattarova, S. T. BADIIY DISKURSDA EMOTSIONALLIKNING NAMOYON BO‘LISHI / S. T. Abdusattarova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 230–233.

Annotatsiya. Mazkur maqolada badiiy diskursda emotsionallikning namoyon bo‘lish xususiyatlari, uning lingvistik va stilistik vositalar orqali ifodalanishi hamda badiiy matnning mazmuniy va estetik yaxlitligini shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Personajlarning ichki nutqi, dialogi, muallif bayoni va hissiy kechinmalarining bevosita yoki bilvosita tasvirlanishi kitobxonning badiiy voqelikni idrok etishi va qahramonlarga nisbatan empatiya his qilishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida o‘rganiladi. Tahlil jarayonida K. Chopinning “The Story of an Hour”, A. P. Chexovning “Kuchukli xonim”, O‘. Hoshimovning “Dunyoning ishlari” va Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarlaridan misollar keltiriladi. Shuningdek, personajlarning hissiy kechinmalarini verbal ifodalash va ularni ataylab ochiq bayon qilmaslikning badiiy-estetik vazifalari yoritiladi. Tahlil natijasida emotsionallik badiiy diskursda personajlarning ruhiy olamini ochish, muallif badiiy niyatini anglash va kitobxonning hissiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim vosita ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: badiiy diskurs, emotsionallik, emotivlik, ekspressivlik, ichki nutq, muallif bayoni, personaj ruhiyati, verbalizatsiya, badiiy-estetik ta’sir, empatiya.

ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. В статье анализируются особенности проявления эмоциональности в художественном дискурсе, способы её выражения посредством языковых и стилистических средств, а также её роль в формировании смыслового и эстетического содержания художественного текста. Внутренняя речь персонажей, диалоги, авторское повествование и прямое или косвенное изображение эмоциональных переживаний рассматриваются как факторы, влияющие на восприятие художественной действительности читателем и формирование эмпатии по отношению к персонажам. В качестве иллюстративного материала используются произведения К. Шопен «The Story of an Hour», А. П. Чехова «Дама с собачкой», Ё. Хошимова «Дела земные» и Чулпана «Ночь и день». Особое внимание уделяется художественно-эстетическим функциям вербализации эмоциональных переживаний персонажей, а также намеренного сокрытия их внутреннего мира. В результате исследования обосновывается, что эмоциональность является важным средством раскрытия психологического мира персонажей, понимания авторского замысла и формирования эмоционального отношения читателя к художественному произведению.

Ключевые слова: художественный дискурс, эмоциональность, эмотивность, экспрессивность, внутренняя речь, авторское повествование, психологизм персонажа, вербализация, художественно-эстетическое воздействие, эмпатия.

THE MANIFESTATION OF EMOTIONALITY IN LITERARY DISCOURSE

Abstract. This article examines the manifestation of emotionality in literary discourse, its expression through linguistic and stylistic devices, and its role in shaping the semantic and aesthetic dimensions of literary texts. Characters’ inner speech, dialogues, authorial narration, and the direct or indirect representation of emotional experiences are analyzed as factors influencing readers’ perception of fictional events and their empathetic responses to characters. The analysis draws on Kate Chopin’s The Story of an Hour, Anton Chekhov’s The Lady with the Dog, Utkir Hashimov’s “The Affairs of the World”, and Chulpan’s “Night and Day”. Particular attention is paid to the artistic and aesthetic functions of verbalizing characters’ emotional experiences, as well as deliberately withholding explicit access to their inner thoughts. The findings suggest that emotionality is an important means of revealing characters’ psychological worlds, interpreting authorial intention, and shaping readers’ emotional engagement with literary works.

Keywords: literary discourse, emotionality, emotivity, expressiveness, inner speech, authorial narration, character psychology, verbalization, aesthetic impact, empathy.

Kirish. Til insonning nafaqat fikr va axborotini, balki ichki kechinmalari, ruhiy holati va boshqa insonlarga bo‘lgan munosabatini ifodalashning ham muhim vositasidir. Shu sababli emotsionallikni o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning semantika,

pragmalingvistika, stilistika va diskurs tahlili bilan uzviy bog‘liq yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Badiiy diskursda emotsionallikning namoyon bo‘lishini o‘rganish ayniqsa muhimdir. Chunki badiiy matnda qahramonlarning his-tuyg‘ulari bevosita nomlash, ichki nutq, dialog, muallif bayoni, xatti-harakatlar va kontekst orqali ifodalanadi. Mazkur vositalar personajlarning ruhiy dunyosini ochish bilan birga, kitobxonning voqealarni idrok etishi va ularga hissiy munosabat bildirishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Olimlar bu borada ilmiy izlanishlar olib borgan turlicha qarashlarini bildirgan. M.Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetikasiga oid tadqiqotlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. U badiiy matnni lingvopoetik jihatdan o‘rganish doirasida matn birliklari, til vositalarining poetik aktuallashuvi hamda ularning badiiy-estetik vazifalarini tahlil qilish masalalariga e’tibor qaratadi [Yo‘ldoshev M., 2008; 160]. Shuningdek, S. Normo‘minov va F. Odinayeva tadqiqotida emotsionallik va ekspressivlikni yuzaga chiqarishda tovush, qo‘shimcha, so‘z hamda tasviriy ifodalarning ahamiyati yoritilgan [Normo‘minov Sh.T., Odinayeva F.Z., 2024; 162–165]. Ushbu qarashlar badiiy diskursdagi emotsionallikni faqat his-tuyg‘ularni bildiruvchi leksik birliklar bilan cheklamasdan, balki turli lisoniy vositalar va ularning matndagi funksional imkoniyatlari orqali o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Ma’lumki, ko‘p hollarda insonlar o‘zaro muloqotda faqat axborot almashish bilan cheklanmay, emotiv aloqa o‘rnatishga ham intiladilar. Badiiy adabiyotda esa qahramonlarning emotsiyalari o‘quvchi tomonidan bevosita emas, balki tilning muayyan emotiv birliklari, ya’ni hissiy mazmunni ifodalovchi til vositalari orqali ifodalanadi. Ushbu til birliklari o‘quvchi tomonidan bevosita kuzatilishi va tahlil qilinishi mumkin. Badiiy adabiyot mualliflari so‘zlovchi shaxsning emotsiyalarini til vositalari orqali ifodalash orqali ularni ushbu asarlarni kitobxonlar uchun ham anglash mumkin bo‘lgan holatga keltiradilar. Emotsiyalarning til vositasida ifodalanishi jarayonida ularning konseptuallashuvi va leksikallashuvi sodir bo‘ladi. Til makoni insonning butun hayotiy tajribasini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli, emotsiyalarning ko‘plab nozik qirralari muayyan nomga ega emas. Binobarin, ularni so‘z orqali tavsiflash ham qiyinlashadi. Bundan tashqari, bir xil his-tuyg‘ularning nomlanishi va ularni ifodalash vositalari turli tillarda har doim ham o‘zaro mos kelavermaydi. Badiiy adabiyotning asosiy vazifalaridan biri asarlarda tasvirlangan, inson qalbida kechadigan jo‘shqin emotsiyalarni anglash va ularga nom berishdan iborat ekan, uni emotsiyalar va emotsional vaziyatlar nomlarining o‘ziga xos xazinasi, shuningdek, turli emotsional kommunikativ vaziyatlarda til egalarining verbal (nutqiy) va noverbal (nutqdan tashqari) muloqot madaniyatini yashirin tarzda shakllantirishga xizmat qiluvchi bebaho o‘quv manbasi sifatida baholash mumkin.

Zamonaviy tilshunoslikda emotsiyalarni ifodalashning lingvistik va stilistik vositalari muammosi eng chuqur o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [Бабенко, 1990; Быдина, 1994]. Darhaqiqat, badiiy asarlar materiallari asosida emotsiyalarni verbal (nutqiy) hamda noverbal vositalar orqali tavsiflash masalasi ham samarali tadqiq etilmoqda [Болотов, 1981; Волкова, 1997].

Badiiy muloqotda fikr-hissiyotlarning tashqi ifodasi badiiy asar muallifi tomonidan amalga oshiriladi. Ularning ochiq ifodalanishi muallif va kitobxon o‘rtasida o‘ziga xos munosabatlarni yuzaga keltiradi. Bunday ifoda tufayli kitobxon personajlar va ularning bir-birlari haqida bilganidan ko‘ra ko‘proq ma’lumotga ega bo‘ladi. Mazkur stilistik usul badiiy matnni talqin qilish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Chunki u muallif, personajlar va kitobxon pozitsiyalarini bir-biridan farqlashga yordam beradi. Bunda kitobxon badiiy asarda go‘yoki ko‘zga ko‘rinmas tarzda ishtirok etuvchi, ushbu noodatiy muloqotning uchinchi tomoni sifatida namoyon bo‘ladi. U sukut saqlovchi bo‘lsa-da, tasvirlangan voqealarga hissiy va intellektual jihatdan befarq bo‘lmagan ishtirokchidir.

Emotsiyalar insonning anglab yetilmagan hodisalar sirini ochishiga, dunyoqarashini kengaytirishiga, yangi ko‘nikma, malaka va bilimlarni egallashiga yordam beradigan kuchli omildir. Muhimi shundaki, bilishga bo‘lgan qiziqishning qondirilishi uni so‘ndirmaydi, aksincha, yanada chuqur ichki kechinmalarni yuzaga keltiradi hamda badiiy asar personajlarining ichki emotiv hayotiga nisbatan diqqatni jamlash va uzoq vaqt davomida qiziqish bilan kuzatish ehtiyojini kuchaytiradi.

Til sohibining emotsional tizimi ko‘pincha badiiy asar matnida, xususan, emotsiyalarning verbal ifodalanishi hamda asar voqealari rivoji va yakuni bilan bog‘liq kontekstlarda o‘rganiladi. Kognitiv fanlar vakillari insonning emotsiyalari uning bilimlari, g‘oyalari va fikrlariga qarab o‘zgarishini, shuningdek, fikrlarning o‘zi ham emotsional xususiyatga ega bo‘lishi mumkinligini allaqachon e’tirof etganlar.

Badiiy adabiyot emotsiyalarning til orqali ifodalanish yo‘llarini ochib beradi. Fikrlar nafaqat verbal, ya’ni so‘z shaklidagi ifodada, balki assotsiativ obrazlar orqali ham mavjud bo‘lgani sababli, badiiy adabiyot til vositalari bilan bevosita ifodalanmagan fikr-hissiyotlarni ham namoyon etadi. Bunday fikr-hissiyotlar ham badiiy asar personajlarining yaxlit emotsional olamini ochib berishda muhim o‘rin tutadi.

Tahli va natijalar. Til so‘zlovchi insonlarning ko‘p avlodlari mehnati, tashvishlari, quvonchlari, mehr-muhabbati, ijobiy va salbiy kabi emotsiyalari ta’sirida shakllangan va rivojlangan. Inson emotsiyalarining fikrlar, fiziologik holatlar, nutqiy xatti-harakatlar va turli amallar orqali namoyon bo‘lishi badiiy asar muallifiga personajlarning hissiy holatini kitobxonga ta’sirchan tarzda yetkazish va ularning xarakterini o‘ziga xos, ishonarli usulda ochib berish imkonini beradi. Ushbu usul yordamida muallif personajlarning hissiyotlar ta’sirida amalga oshirgan xatti-harakatlari va fikrlarining motivlari hamda sabablarini kitobxon uchun asoslab berishi mumkin. Personajlarning ichki kechinmalarini aks ettiruvchi emotsiyalar muallif tomonidan tasvirlanishi ularning ichki dunyosini anglashda alohida ahamiyatga ega. Bunday tasvirlar ko‘pincha personajning o‘z emotsiyalari haqida ochiq aytgan fikrlariga nisbatan samimiyroq va haqiqiy emotsional holatini aniqroq aks ettiradi. Aynan personajning ichki hissiy fikrlarini ochib berish uning tashqi qiyofasi ortida yashiringan ruhiy olamni anglash imkonini yaratadi. Masalan, K. Chopinning “The Story of an Hour” (“Bir soatlik hikoya”) asari bosh qahramon missis Mallardning eri vafot etgani haqidagi xabardan qayg‘urishi tasviri bilan boshlanadi. Biroq biroz vaqt

o‘tgach, u o‘zining ozodlikka erishganini anglaydi: “Free! I am free, free!” (“Erkin! Men erkinman, erkinman!”) [Chopin K., 2000; 757]. Bu qahramonning quvonch va ozodlik hissi bilan bog‘liq kechinmalaridir. Ammo u qarindoshlari va do‘stlari oldida bu tuyg‘ularni na nutqiy, na noverbal vositalar orqali namoyon eta oladi. Uning ichki quvonchi qayg‘u va umidsizlikni ifodalovchi hissiyotlar ortiga yashiriladi. U tashqi tomondan qayg‘u chekayotgandek ko‘rinsa-da, aslida ichki dunyosida ozodlikni his qilmoqda. Aynan qahramonning ichki nutqida namoyon bo‘ladigan kuchli hissiy fikrlar orqali uning eriga bo‘lgan haqiqiy munosabati ochiladi. Bu esa kitobxonga qahramonning kutilmagan o‘limi sababini boshqalarga qaraganda chuqurroq anglash imkonini beradi. Qahramon eri yo‘qligida boshlanadigan go‘zal va baxtli kelajagi haqida yashirincha, zavq bilan xayol suradi. Biroq uning eri tirik holda kutilmaganda paydo bo‘ladi. U o‘zi halok bo‘lishi kerak deb o‘ylangan, ammo eri kechikib qolgani sababli omon qolgan poyezd halokati haqida hech narsa bilmaydi. Shifokorlar missis Mallardning o‘limi sababini: “Uni tirik erini ko‘rishdan tug‘ilgan cheksiz quvonch yuragining yorilishiga sabab bo‘ldi”, deb izohlaydilar. Biroq qahramonning ichki kechinmalaridan xabardor kitobxon vaziyatni boshqacha tushunadi: u nihoyat erkin va baxtli hayot kechirish haqidagi orzu va umidlarining bir zumda barbod bo‘lishiga chiday olmaydi. Missis Mallard o‘zining haqiqiy hissiy olamini o‘zi bilan olib ketadi va atrofdagilar xotirasida erini chin dildan sevgan sadoqatli rafiqa sifatida qoladi.

Badiiy asar personajlarining hissiy fikrlarini muallif tomonidan tasvirlash asarning estetik va kognitiv mazmunini boyituvchi muhim qo‘shimcha ma’lumot hisoblanadi. Masalan: “Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko‘z oldimga keladi. Hovlimizda bir tup bodom bo‘lardi...” [Hoshimov O‘., 2017; 5]. Bu parcha qahramonning bolalik xotiralari orqali onasi bilan bog‘liq iliq hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi. “Iliq yoz kechalari” birikmasi nafaqat tabiat manzarasini, balki qahramon xotirasidagi ruhiy osoyishtalik va mehr muhitini ham ifodalaydi. Natijada o‘quvchi voqeani shunchaki bilib qolmay, qahramonning hissiy olamiga ham yaqinlashadi. Bu esa badiiy tasvirning estetik va kognitiv mazmunini boyitadi.

Badiiy adabiyotda muallifning badiiy niyatini to‘liq hissiy jihatdan anglash faqat personajlarning verbal ifodalangan fikr-kechinmalari orqali mumkin bo‘ladi. Agar bunday verbalizatsiya mavjud bo‘lmasa, bu ham muallif tomonidan qo‘llanadigan, muayyan personaj obraziga mistik xususiyatlar bag‘ishlovchi stilistik usul bo‘lishi mumkin. Misol uchun: “Qani, mening Zebim? Qani, Zebonam?” [Cho‘lpon, 2013; 265]. Qurvonbibining ushbu savollari uning qiziga bo‘lgan mehrini va ayriliq tufayli yuzaga kelgan chuqur ruhiy iztirobini ifodalaydi. Muallif qahramonning hissiy holatini faqat bevosita izohlash bilan cheklanmay, uning takroriy savollari, nutqi va xatti-harakatlari orqali ham ochib beradi. Shu tariqa kitobxon Qurvonbibining ruhiy olamini anglaydi va uning fojiasini hissiy jihatdan idrok etadi. Agar qahramonning kechinmalari bevosita so‘zlar bilan ifodalanmaganida, uning holatini faqat tashqi belgilar orqali anglashga to‘g‘ri kelardi. Demak, personaj nutqi muallifning badiiy niyatini ochish va kitobxonda hissiy munosabat shakllantirishning muhim vositasidir. Verbal ifodalangan fikr-kechinmalarning ataylab yo‘qligiga asoslangan ushbu stilistik usul Elizabet Tallentning “No One’s Mystery” (“Hech kimning siri emas”) hikoyasida ham personaj obrazini yaratish uchun qo‘llanilgan. Masalan: “He pushed me down onto the dirty floor of the pickup...” [Tallent E., 1986; 10]. Mazkur lavha muallifning personajlar ruhiyatini bevosita izohlashdan ko‘ra, ularning xatti-harakatlari va dialogi orqali ochib berish usulidan foydalanganini ko‘rsatadi. Jekning qizni yashirishga urinishi uning vaziyatga munosabatini namoyon etsa-da, uning ichki fikrlari va hissiy kechinmalari bevosita bayon qilinmaydi. Natijada kitobxon Jekning ruhiy holatini uning xatti-harakatlari va nutqidan kelib chiqib mustaqil talqin qiladi. Shu bilan birga, voqealar ismi aytilmagan qizning birinchi shaxs tilidan hikoya qilingani sababli, kitobxon uning kuzatuvlari bilan tanishadi, biroq Jekning ichki dunyosiga bevosita kira olmaydi. Bu usul personajlar o‘rtasidagi axborot nomutanosibligini yuzaga keltirib, kitobxonni faol kuzatuvchi va talqin qiluvchi sifatida namoyon etadi. Bunga qarama-qarshi misol sifatida A. P. Chexovning “Kuchukli xonim” (“Дама с собачкой”) hikoyasida personajlarning hissiy kechinmalarini muallif tomonidan bevosita tasvirlash badiiy niyatni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hikoya davomida Dmitriy Gurovning muhabbatga bo‘lgan munosabati o‘zgarib boradi. Dastlab ayollar bilan munosabatlarga yengil qaraydigan qahramon Anna Sergeyevna bilan uchrashgach, o‘zining ilgari his qilmagan chuqur tuyg‘ularini anglay boshlaydi. Muallif Gurovning ichki fikrlarini ochib berar ekan, uning “hayotida birinchi marta chinakam sevib qolganini” ta’kidlaydi [Чехов А. П., 1986; 132–133]. Shuningdek, Anna Sergeyevna va Gurovning o‘zaro kechirimli munosabati hamda muhabbat ularning har ikkalasini o‘zgartirgani haqidagi tasvirlar kitobxonning qahramonlar ruhiyatini chuqurroq anglashiga yordam beradi [Чехов А. П., 1977; 143]. Shu tariqa, muallifning hissiy kechinmalarni verbal ifodalashi personajlarning ruhiy evolyutsiyasini yoritish bilan birga, kitobxonda ularga nisbatan empatiya va hissiy hamdardlikni shakllantiradi.

Xulosa. Badiiy diskursda emotsionallikning namoyon bo‘lishi badiiy matnning mazmuniy, estetik va pragmatik xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan biridir. Emotsionallik personajlarning ichki nutqi, dialoglari, leksik va sintaktik vositalar, muallif bayoni, xatti-harakatlari hamda kontekst orqali yuzaga chiqadi. Ushbu vositalar qahramonlarning ruhiy holatini yoritish, ularning xatti-harakatlari sabablarini tushuntirish va muallifning badiiy niyatini anglash imkonini beradi.

Tahlil qilingan badiiy asarlar emotsional kechinmalarning verbal ifodalanishi kitobxonning personajlar ichki dunyosiga kirib borishi va ularga nisbatan empatiya shakllanishida muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Xususan, K. Chopinning “The Story of an Hour” hikoyasida qahramonning ichki nutqi uning tashqi xatti-harakatlari bilan ichki kechinmalari o‘rtasidagi ziddiyatni ochib bersa, A. P. Chexovning “Kuchukli xonim” hikoyasida personajlarning ruhiy o‘zgarishlari va muhabbatni anglash jarayoni kitobxonning hissiy munosabatini chuqurlashtiradi. O‘zbek adabiyoti namunalarida ham personajlarning nutqi, xotiralari va ruhiy iztiroblari orqali emotsional mazmunning shakllanishi kuzatiladi. Shu bilan birga, personajlarning ichki fikrlarini ochiq bayon qilmaslik ham muayyan badiiy-estetik vazifani bajarishi mumkin. Bunday holatda kitobxon qahramonning ruhiy holatini tashqi belgilar, xatti-harakatlar va kontekst

asosida mustaqil talqin qiladi. Demak, emotsional kechinmalarning ochiq ifodalanishi ham, yashirin qoldirilishi ham badiiy diskursning ta’sirchanligini oshiruvchi usullar sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Бабенко Л. Г. Русская эмотивная лексика как функциональная система: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Свердловск, 1990.

[2] Болотов В. И. Эмоциональность текста в аспектах языковой и неязыковой вариативности. – Ташкент, 1981.

[3] Быдина И. В. Движение эмотивной семантики поэтического слова: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1994.

[4] Волкова П. С. Эмотивность как средство интерпретации смысла художественного текста (на материале прозы Н. В. Гоголя и музыки Ю. Буцко, А. Холминова, Р. Щедрина): автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 1997.

[5] Чехов А. П. Дама с собачкой // Полное собрание сочинений и писем: в 30 т. Сочинения: в 18 т. Т. 10. – Москва: Наука, 1977. – С. 143.

[6] Чехов А. П. Дама с собачкой // Полное собрание сочинений и писем: в 30 т. Т. 10. Рассказы, повести, 1898–1903. – Москва: Наука, 1986. – С. 132–133.

[7] Cho‘lpon. Kecha va kunduz: roman. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 265.

[8] Chopin K. The Story of an Hour // Kate Chopin: Complete Novels & Stories. – New York: Library of America, 2000. – P. 757.

[9] Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 5.

[10] Normo‘minov Sh. T., Odinayeva F. Z. Matnda emotsionallik va ekspressivlikni oshiruvchi vositalar // Modern Science and Research. – 2024. – Vol. 3, № 12. – B. 162–165.

[11] Tallent E. No One’s a Mystery // Shapard R., Thomas J. (eds.). Sudden Fiction: American Short-Short Stories. – Salt Lake City: Peregrine Smith Books, 1986. – P. 10.

[12] Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 b.